# PANDEMIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O‘SISH PROGNOZLARI

**Toshov Mirzabek Hakimovich**
*Osiyo xalqaro universiteti*
**Alimova Shamsiya Abidovna**
*Osiyo xalqaro universiteti*

**Annotatsiya:** *Insoniyat uchun yangi bir chaqiruv, sinov bo‘lgan tojli virus dunyoning zabardast iqtisodiyotlarini navbati bilan sindirib kelmoqda. Biologik kelib chiqishi bo‘yicha aniq bir dalil va isbot bo‘lmasada, dunyo iqtisodiyotiga ham ijobiy ham salbiy oqibatlari ko‘pgina olimlar va nashriyotlar tomonidan e’tirof qilinmoqda*[6].

**Kalit so’zlar:** *Xizmatlar, aholi, aholi bandligi, farovonlik*

Umuman olganda koronavirusning iqtisodiy asoratlarini quyidagi yo‘nalishlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

**Iqtisodiy prognozlarning pasayishi.** Koronavirus jahon moliyaviy tashkilotlari tomonidan nafaqat jahon iqtisodiyotining, balki barcha mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sish prognozlarini pasaytirishga taqozo etdi.

**Ishlab chiqarish faolligining tushib ketishi.** Barcha mamlakatlar o‘z aholisi uchun karantin rejimini, hattoki, favqulodda holat e’lon qilganligi sababli ko‘pgina ishlab chiqarish korxonalari faoliyatlarini vaqtinchalik to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

**Xizmatlar sohasining qisqarishi.** Koronavirus pandemiyasi xizmat ko‘rsatish sohasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi, chunki chakana savdo, restoran va aviatsiyaga ketadigan iste’molchilar xarajatlari kamaydi.

**Neft narxining qulashi.** Dunyo bo‘ylab ishlab chiqarish faolligining susayishi neftga bo‘lgan talabning pasayishiga olib keldi, bu esa neft narxining ham pasayishiga sabab bo‘ldi.

**Moliyaviy bozorlardagi xaos.** COVID-19 virusi tarqalishi va uning global iqtisodiyotga ta’siri bilan bog‘liq xavotirlar va qo‘rquvlar investorlar hissiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, bu esa o‘z navbatida yirik fond bozorlarda aksiyalar narxlarining keskin pasayishiga olib keldi. Tahlilchilar virus pandemiyasi uch yo‘l bilan bozorlarga ta’sir qilishi mumkin deb qayd etishmoqda:

6 https://mininnovation.uz/uz/news/20566.

- Xitoyda mehnat va ishlab chiqarish faolligining pasayishi;
- mahalliy bozorlarda mehnat va ishlab chiqarish faolligining pasayishi;
- moliyaviy bozorlardagi stress holati.

**Obligatsiyalar daromadliligining pasayishi.** Virusning butun dunyo bo‘ylab tarqalishi borasidagi xavotirlar ham obligatsiyalar hosildorligining pasayishiga olib keldi.

**Xalqaro ishsizlik ko‘rsatkichining oshib ketishi.** Ba’zi davlatlarda karantin rejimi yoki favqulodda holat e’lon qilinishi ish beruvchilar tomonidan xodimlarni ishdan bo‘shatilishiga olib keldi.

**Xalqaro turizm ko‘rsatkichlarining keskin pasayishi.** Turizm jahon iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri bo‘lib, yillik daromadi 2019 yil yakunlari bo‘yicha 5,7 trln. AQSh dollarini tashkil etgan. Deyarli 330 million kishi yoki dunyodagi ish bilan band insonlarning deyarli 10 foizi turizm sektorida ishlaydi.

Turizm sektori koronavirus pandemiyasi oldida eng zaif bo‘lgan sektor bo‘lib qoldi. Zero, turizm sohasida harakatlanish va sayohatni bekor qilish cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar, uning ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Butun dunyo bo‘ylab bir necha yuz ming kishilar ishtirok etishi rejalashtirilgan yirik anjuman va tadbirlar bekor qilindi. Eng asosiysi, koronavirus yetib borgan barcha davlatlar o‘z chegaralarini yopish bilan xalqaro aviaqatnovlarni to‘xtatdi. Bu ham turizm sektori uchun kutilmagan zarba sifatida qabul qilindi.

**Xalqaro savdo deyarli to‘xtadi.** Mamlakatlar o‘z chegaralarini yopganlaridan so‘ng tovar va xizmatlar eksport-importi deyarli to‘xtadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan pandemiyaning jahon mamlakatlari rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini ham chetlab o‘tmadi. Ayniqsa, iqtisodiyotda pandemiyaning o‘zi emas, balki u bilan bog‘liq cheklovlar juda katta o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazdi.

Turli xalqaro moliya institutlari ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish tezligi pasayishi ta’kidlangan edi. Inqirozdan oldingi davrda bu ko‘rsatkich Jahon banki tomonidan 5.7 foiz miqdorida bo‘lishi, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori ko‘rsatkichga aylanishi bashorat qilingan edi[7].

Statistik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, pandemiya davrida respublika YaIMning mutlaq o‘sish sur’ati 1.6 foizni tashkil etdi (1-rasm).

---

[7] https://mininnovation.uz/uz/news/20566.




**1-rasm. YaIMning mutlaq o‘sish sur’atlari** (o‘tgan yilga nisbatan foizda)[8]

2020 yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi YaIMning o‘sish sur’atlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0.2 foizni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich Toshkent shahri bo‘yicha - 0.5 foizni, Qashqadaryo viloyatida - 2.1 foizni, Sirdaryo viloyatida - 3.1 foizni hamda Samarqand viloyatida esa, - 3.9 foizlarni tashkil etdi.




**2 - rasm. 2020 yilning yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ning o‘sish sur’atlari** (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)[9]

---

[8] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий веб саҳифаси маълумотлари//stat.uz.
[9] https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/7981/.

Albatta iqtisodiy oʻsishning pasayishiga Oʻzbekistonning asosiy savdo hamkorlari (Xitoy, Rossiya, Turkiya) iqtisodiyotidagi pasayish ham taʼsir qiladi. Yana bir muhim omil - xomashyo bozorlaridagi pasayish bilan bogʻliq ishbilarmonlik faolligining sustligi. Shuningdek, neft narxining pasayishi ham sezilarli darajada taʼsir qiladi. Koʻp jihatdan mana shu tashqi omillar barqarorlashsa, Oʻzbekiston iqtisodiyotida oʻsish boʻlishi mumkin.

Qayd etish joizki, karantin cheklovlari Oʻzbekistonning koʻplab sohalariga salbiy taʼsir oʻtkazdi. Umumiy ovqatlanish, turizm va mehmonxona, xizmatlar sohasi jiddiy talafot koʻrdi. Cheklovlar tufayli zarar koʻrmagan soha deyarli qolmadi. Ayniqsa kichik biznesga juda ogʻir boʻldi, chunki bunday sharoitda uning tezda tiklanib olishi osonmas. Shuningdek, pandemiya davrida (2020 yil) Oʻzbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarida quyidagicha oʻzgarishlar kuzatildi.




**3-rasm. Pandemiya davrida respublika asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarining oʻzgarishi** (foizda)[10]

Oʻzbekistonda karantin choralari joriy qilingan dastlabki davrdagi iqtisodiy faollik susayishining eng quyi koʻrsatkichlari aprel oyining birinchi dekadasida kuzatilib, tovar xom-ashyo birjasida savdolar bitimlari hajmi oʻrtacha 30 foizgacha, ayrim tovarlar boʻyicha sotish hajmi esa, 80 foizgacha tushib ketdi. Aprel oyining 1-27 kunlarida mart oyining mos davriga nisbatan respublika boʻyicha jami pul tushumlari 45 foizga, bunda, mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumlar 31 foizga hamda pullik xizmatlar sohasidan keladigan tushumlar esa qariyb 2,7 barobarga qisqarishi kuzatildi. Shu sababli,

[10] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий веб саҳифаси маълумотлари//stat.uz.

O‘zbekistonda koronavirus pandemiyasi va global inqirozning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi[11].

Bunda turizm, transport, farmasevtika va to‘qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo‘llab -quvvatlash va ularning barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy choralarning dastlabki va ikkinchi to‘plamlari jami qiymati 32,3 trln. so‘mdan ortiqni tashkil etdi. Bundan tashqari, mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirishga, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga, byudjet xarajatlarini maqbullashtirishga va eng katta ta’sirga uchragan sohalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa choralarni amalga oshirish belgilandi. 30 may holatiga ko‘ra, 500 mingdan ortiq tadbirkorlik sub’ektlari va 8 million nafardan ziyod fuqaro 30 trln. so‘mga yaqin yoki qariyb 3 mlrd AQSh dollari (YaIMning 6 foizi) miqdorida imtiyoz va preferensiyalar olgan.

Umuman olganda, O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan choralar to‘plamini 4 ta yo‘nalishga ajratib, alohida ko‘rib chiqish mumkin:

- umumiqtisodiy chora-tadbirlar;
- aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari;
- eng ko‘p ta’sir ko‘rgan sohalarni qo‘llab-quvvatlash choralari.

**Eng ko‘p ta’sir ko‘rgan sohalarni qo‘llab-quvvatlash choralari sifatida, birinchidan**, **turizm hamda unga bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash** uchun, yuz minglab ish o‘rinlarini va malakali mutaxassislarni saqlab qolish, ularni daromadlarini ushlab turish uchun O‘zbekistonda qator choralar ko‘rildi. Shuningdek, turizm sohasi bilan bog‘liq faoliyatlarga soliq va yig‘imlarga oid bir qator imtiyozlar berildi. Mazkur sohani qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning tashkiliy va iqtisodiy manbalari belgilandi.

## XULOSA

Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan global pandemiya milliy iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlariga juda katta talofatlar yetkazdi va buning natijasida aksariyat davlatlarda YaIM o‘sish sur’atlarining pasayishi kuzatildi. Statistik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha,

[11] https://strategy.uz/index.php?news=1013.

pandemiya davrida respublika YaIMning mutlaq oʻsish sur'ati 1.6 foizni tashkil etdi.

Global inqirozning respublikamiz ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirlarini yumshatish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz xolatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish boʻyicha birinchi navbatdagi chora - tadbirlar toʻgʻrisida"gi farmoni qabul qilindi.

Inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qoʻllab - quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy choralarning dastlabki va ikkinchi toʻplamlari jami qiymati 32,3 trln. soʻmdan ortiqni tashkil etdi. Bundan tashqari, mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirishga va eng katta ta'sirga uchragan sohalarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan boshqa choralarni amalga oshirish belgilandi.

Oʻzbekiston tomonidan amalga oshirilishi koʻzda tutilgan choralar toʻplamini 4 ta yoʻnalishga ajratish mumkin, bular: umumiqtisodiy chora-tadbirlar, aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari, eng koʻp ta'sir koʻrgan sohalar.

Olingan prognoz koʻrsatkichlariga koʻra, 2025 yilga borib, respublika YaIMning fizik hajmi 938414 mlrd.soʻmga teng boʻlishi kutiladi. Mazkur koʻrsatkich YaIMning 2023 yilda erishgan qiymatiga nisbatan 1.6 barobarga koʻp deganidir. Shuningdek, MAPE qiymati 7,21 foizga teng boʻlib, bundan koʻrinadiki, mazkur prognozning aniqligi yuqori hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidovna, A. S. (2024). XUSUSIY OLIY TA'LIMDA HR MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(08), 68-74.

2. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. *Modern Science and Research*, *3*(7), 211-218.

3. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch*.

4. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 336-343.

5. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2024). СОЦИАЛЬНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ РЕШЕНИЯ

ОБЩЕСТВЕННЫХ ПРОБЛЕМ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 347-352.

6. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2024). РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 355-359.
7. Sadilloevna, D. M., & Abidovna, A. S. (2024). THE STRATEGIC ROLE OF MANAGEMENT IN ENTREPRENEURIAL SUCCESS. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 220-225.
8. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN ENTREPRENEURSHIP. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 232-237.
9. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 21, 51-55.
10. Alimova, S. A., & Shavkatovich, P. S. (2022). THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(3), 359-364.
11. Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. Miasto Przyszłości, 49, 971-975.
12. Alimova, S. A., & Nutfullaevna, K. M. (2022). STATE MANAGEMENT OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 75-80.
13. Abidovna, A. S. (2023). MODERN TRENDS IN MANAGEMENT STRATEGIES AND THEIR APPLICATION IN COMMERCIAL BANKS. Gospodarka i Innowacje., 41, 326-332.
14. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. Modern Science and Research, 3(7), 211-218.
15. Alimova, S. A., & Khaitov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 303.
16. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.

17. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. Gospodarka i Innowacje, 49, 211-217.

18. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). "BUXORO SUV TA'MINOTI" MCHJ KORXONASINING UMUMIQTISODIY HOLATI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 390-398.

19. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 284-292.

20. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 307-309.

21. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). OZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 300-306.

22. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 314-322.

23. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). BUXORO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA BANDLIK. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 67-73.

24. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNING MILLIY JAMIYATIMIZGA TA'SIRI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 104-108.

25. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING TAMOYILLARI VA MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI BILAN BOG'LIQLIGI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 97-103.

26. Hakimovich, T. M. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1458-1463.

27. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, *2*(12), 470-476.

28. Hakimovich, T. M. (2024). Xizmat Ko'rsatish Sohasida Aholi Bandligini Oshirishning Nazariy-Metodologik Asoslari. *Miasto Przyszłości*, *54*, 987-995.

29. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, *2*(10), 535-541.

30. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 270-273.

31. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, *3*(2), 461-468.

32. Ibodullayevich, I. E. (2024). Inqirozga Qarshi Choralar Dasturi Doirasida Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlik Subyektlarini Marketing Tizimi Asosida Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, *54*, 1495-1503.

33. EI, I. (2024). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO ‘LGA QO ‘YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 315-324.

34. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO ‘JALIGI IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG ‘I SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 156-164.

35. Mamlakat, I. (2023). THE USE OF DICTIONARIES IN READING AND UNDERSTANDING LITERARY TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(09), 285-292.

36. Supiyevna, B. M. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEADER LABOR IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 51-55.

37. Sodikova, N. T. (2024). PROMOTION OF LABOR PRODUCTIVITY GROWTH IN THE ENTERPRISE AS A BASIC CONDITION. *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal*, *1*(3), 188-198.

38. Tohir o’g’li, M. T., & To’rayevna, S. N. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(14), 45-53.

39. Sodikova, N. T. (2024). PROMOTION OF LABOR PRODUCTIVITY GROWTH IN THE ENTERPRISE AS A BASIC CONDITION. *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal*, *1*(3), 188-198.

40. Bahodirovich, X. B. (2024). KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING MOLIYAVIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

41. Bahodirovich, X. B. (2024). O’ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI. *Gospodarka i Innowacje.*, *52*, 9-13.

42. Bahodirovich, X. B. (2024). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QARZ MABLAG‘LARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHDA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 211-216.

43. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYALARINING IERARXIK TUZILISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 187-192.

44. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 193-198.

45. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BAZAVIY INNOVATSION STRATEGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 332-336.

46. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 183-187.

47. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 325-330.

48. Xudoynazarovich, S. A. (2024). CHALLENGES OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(12), 398-402.

49. Kayumovich, K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. *Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia*, 32.

50. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 153-159.

51. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTGA OTISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 56-61.

52. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 113-118.

53. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *" Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал*, *6*(14).

54. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 314-322.

55. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). BUXORO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA BANDLIK. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 67-73.

56. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNING MILLIY JAMIYATIMIZGA TA'SIRI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 104-108.

57. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING TAMOYILLARI VA MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI BILAN BOG'LIQLIGI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 97-103.

58. Hakimovich, T. M. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1458-1463.

59. Akbarovna, N. N. (2024). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT YURITISHNING SHAKLLARI VA YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 57-63.

60. Akbarovna, N. N. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK IQTISODIYOTNING MUHIM SOHASI SIFATIDA. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 307-313.

61. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 407-412.

62. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). FRILANSERLIK-O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING YANGI SHAKLI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 283-288.

63. Qayumovna, J. Z., Ne'matovna, R. N., & Azizovna, P. A. FAVORABLE INVESTMENT CLIMATE FORMATION ISSUES FOR ATTRACTING ACTIVE INVESTMETNS. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 29.

64. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *Nashrlar*, 318-321.

65. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *(No Title)*.

66. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MEHNATNI SAMARALI TASHKIL QILISHNING ASOSIY YO'LLARI.

67. Bustonovna, J. Z. (2024). MOLIYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI.

68. Jumayeva, Z. (2024). DAVLAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISH YURITISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING ZARURIY SHARTLARI. *Modern Science and Research*, *3*(6).

69. Turayevich, I. A. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI BOSHQARISH YO ‘LLARI. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1464-1468.

70. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB’EKTLARI INVESTITSION LOYIHALARINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 306-314.

71. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNI INVESTITSIYA BILAN TA’MINLASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(2), 241-248.

72. AT, I. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN QO ‘LLAB QUVVATLANISHI VA SOHAGA MINTAQALAR MIQYOSIDA INVESTITSIYA JALB QILISH SAMARADORLIGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(2), 264-271.

73. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 319-326.

74. Avazovna, R. L. (2024). PENSIYA TA’MINOTINI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH ORQALI PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MASALALARI. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1469-1474.

75. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O ‘RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(8), 48-52.

76. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARINI TRANFORMATSIYA QILISHDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING AHAMIYATI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 300-306.

77. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). IQTISODIY TEBRANISHLAR SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING YASHOVCHANLIK DARAJASINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 313-318.

78. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). KORXONALARNING BOZORDAGI FAOLLIGINI BAHOLASHDA ANSOFF MATRISASINI QO’LLASH: AFZALLIKLARI VA USTUNLIKLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 100-106.

79. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). AHOLINING O’ZINI OZI BANDLIGINI TA’MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 59-64.